

Mavzu: Gapning maqsadiga ko'ra turlari

Aa Bugun sinfda men
navbatchiman.

poyezd

LUG'AT



Navbatchi o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni belgilangan qoidalar va me'yorlarga muvofiq ravishda bajaradi. Shu bilan birga tartib-intizomni saqlash, tozalikni ta'minlash yoki umumiy ish jarayonining to'g'ri tashkil etilishiga ko'maklashadi.



Gapning maqsadiga ko'ra turlari:

darak

Yomg'ir yoqdi.

so'roq

Qushlar qachon
uchib ketadi?

buyruq

Tabiathni asrang.

his-hayajon

Opa tabiat
nagadar g'ozal!



1-mashq. She'riy to'rtlikni o'qing. Tinish belgilariga e'tibor bering.



Sinfda men navbatchi¹,
Ustozimga ko'makchi.
Sof tutaman xonani,
Hamda yozuv taxtani.

Manzura Numanova



2-mashq. O'qing. O'ylab ko'ring va xatolarni to'g'rilang. Gaplarning maqsadiga ko'ra turlarini takrorlang va misollar keltiring.





Gap biror narsa haqida xabar, buyurish, maslahat, iltimos mazmunini bildirsa, yakunida **nuqta** qo'yiladi.

Masalan: Qushlarning yoqimli ovozi eshitildi.
O'quvchilar, darsda shovqin solmang.

So'rash mazmunidagi gap oxiriga **so'roq** belgisi qo'yiladi.

Masalan: Kuzdan keyin qaysi fasl keladi?

Gap kuchli his-hayajon bilan aytilganda **undov** belgisi qo'yiladi.

Masalan: Har doim tinchlik bo'lsin!



3-mashq. O'qing. Har bir gap oxiriga kerakli tinish belgisini qo'yib, ko'chiring.

- Bolalar, bugun biz hayvonot bog'iga boramiz
- U yerda qanday hayvonlarni ko'ramiz
- Sher, fil, maymun va rang-barang qushlarni ko'ramiz
- Maymunlar nima qilyapti
- Ular sakrab o'ynayapti Keling, ularga ozor bermasdan, tartibga rioya qilgan holda tomosha qilaylik
- Hayvonot bog'ida sayr qilish juda maroqli





4-mashq. Ifodali o'qing. Tushirib qoldirilgan harflar va tinish belgilarini qo'yib, she'rni ko'chiring.

Tipratikan

Men kim – t...pratikanman
Igna-tik...nga konman
Meni siypala... ko'rmang
Keyin "voy-voy"lab yurmang

Internet manbalaridan



5-mashq. Gaplarning oxiriga kerakli tinish belgisini qo'yib, ko'chiring.



Yashil vodiy juda ajoyib va go'zal Pastikda tezozar darvo bor Yuzoriga qarasangiz, baland tog'lar qad rostlab borganmisiz Siz bunday so'lim go'shaga boranmisiz